

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**



URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

**TURIZM VA IQTISODIYOT FAKULTETI
TURIZM KAFEDRASI**

E.Ibadullayev, J.Bekturdiyev, B.Ro'zmetov

**MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISH VA
RASMIYLASHTIRISH BO'YICHA
USLUBIY KO'RSATMA**

**(“Turizm” va “Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va
boshqarish” ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun)**



URGANCH – 2016 y.

MAS'UL MUHARRIR: D.Xudayberganov, Urganch Davlat uinversiteti “Turizm” kafedrası dotsenti, i.f.n.

TAQRIZCHILAR:

T.Do'stjanov, Urganch Davlat universiteti
“Turizm” kafedrası professori, i.f.d.

U.Matyakubov, Urganch Davlat universiteti
“Iqtisodiyot” kafedrası mudiri, i.f.n.

ANNOTATSIYA

Mazkur uslubiy ko'rsatma 5610300 – “Turizm (faoliyat yo`nalishlari bo`yicha)” va 5610200 – “Mehmonxona xo`jaligini tashkil etish va boshqarish” ta'lim yo`nalishi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, unda mustaqil ishlar va ularni talab darajasida aniq va to'g'ri rasmiylashtirish, ishni amalgam oshirish tartibiga oid amaliy tavsiyalar bayon qilingan.

Uslubiy ko'rsatma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2009 yil 14 avgustdagi 286-sonli “Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish to'g'risida”gi buyrug'i bilan tasdiqlangan “Talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish” bo'yicha yo'riqnomasi, 2010 yil 25 avgustdagi 333-sonli buyrug'i bilan amalga kiritilgan “Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risida Nizom” hamda “Turizm” kafedrasida mustaqil ishlarni tashkil etish borasida to'plangan tajribalar inobatga olinib ishlab chiqildi. Uslubiy ko'rsatma turizm fanini o'rganuvchi va qiziquvchi talabalar uchun mo'ljallangan.

Urganch Davlat universiteti ilmiy-uslubiy kengashining 20__ yilda
____ dagi – sonli Qaroriga muvofiq nashrga tavsiya qilingan.

© UrDU Noshirlik bo'limi, 20__.

KIRISH

Malakali kadrlar tayyorlashning muhim omillaridan biri - ta'lim sifati va samaradorligini oshirishdir. Ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda o'qitishning zamonaviy usullari, shakl va vositalari, o'yin texnologiyalari, muammoli o'qitish, xususan, mustaqil ta'limning noan'anaviy metodlari ham muhim o'rin egallaydi.

Hozirgi vaqtda oliy ta'lim muassasalarida talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2005 yil 21 fevraldagi 34-sonli buyrug'i asosida tasdiqlangan "Talabalarning mustaqil ishini tashkil etish, nazorat qilish va baholash tartibi" to'g'risidagi namunaviy Nizom asosida amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizdagi oliy ta'lim muassasalarida talabalarning nazariy va amaliy mustaqil ta'lim olishlari uchun katta imkoniyatlar yaratilgan. Mustaqil ta'lim olishda talaba o'zi mustaqil ravishda adabiyotlar, darsliklar, gazeta va jurnallar, radio va televidenie, elektron darsliklar, o'quv qo'llanmalari, internet resurslari, Ziyonet materiallari va o'quv-uslubiy majmualardan foydalanishi nazarda tutiladi.

Mustaqil ta'lim o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish, murakkablik darajasi turlicha bo'lgan topshiriqlar, amaliy vazifalarni auditoriyada hamda auditoriyadan tashqarida ijodiy va mustaqil bajarish asosida nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyat bo'lib, u didaktik maqsadi, vazifasi, murakkablik darajasi, kimga (individual yoki jamoa uchun) mo'ljallanganligiga qarab, bir-biridan farq qiladi.

Mustaqil ta'lim jarayonida tanlangan mavzularning ilmiyligi, tizimlilik hamda o'quv materiallarining qiziqarliligi, amaliyot bilan bog'liqligi, fanlararo aloqadorligi, shuningdek beriladigan mustaqil ishlar va topshiriqlarning ijodiy xarakterga egaligi muhimdir. Uning nazariy, amaliy, ilmiy, metodik va pedagogik asoslari tahlil qilinishi, samarali shakllari, vositalari tanlansa, ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Mustaqil o'rganilayotgan mavzuning amaliyot bilan uzviyligi, ilmiyligi va o'quv materiallarining qiziqarliligi, mavzularning tizimlilik, topshiriq hamda vazifalarning ko'p qirraliligi, o'zaro bog'liqligi muhim o'rin tutadi. Ammo, talabalarning mustaqil ravishda ta'lim olish faoliyatini tashkil etishda ularning intilish va qiziqishlariga e'tibor qaratish zarur. Shu bois, talabalarda u yoki bu o'quv materialini mustaqil o'rganish malakasini shakllantirish jarayoni pedagog tomonidan maqsadli tashkil etilgan jarayon bo'lib, uning nazorati ostida amalga oshiriladi.

1. MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISH VA VA MUSTAQIL ISHLARNI BAHOLASH MEZONLARI

Talaba mustaqil ishi muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakaning ma'lum bir qismini talaba tomonidan fan o'qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya va auditoriyadan tashqarida o'zlashtirilishiga yo'naltirilgan tizimli faoliyat hisoblanadi.

Talabalar mustaqil ishi bo'yicha konsultatsiya darsi auditoriyadan tashqarida amalga oshirishga mo'ljallangan mustaqil ishlarni bajarish yuzasidan tegishli topshiriqlar va yo'llanmalar berish hamda uni bajarilishini nazorat qilish maqsadida fanning ishchi dasturidagi kalendar-tematik rejaga muvofiq o'tkazilib, alohida jurnalga qayd qilib boriladi.

Talabalar mustaqil ishlari ta'lim yo'nalishlari xususiyatlaridan kelib chiqqan holda quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

- fanning ayrim mavzularini adabiyotlar yordamida mustaqil o'zlashtirish, o'quv manbalari bilan ishlash va mavzuga oid qo'lyozma konspektlar tayyorlash;

- amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlariga mustaqil yondoshuv asosida tayyorgarlik ko'rib kelish;

- amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlarida qatnashib, ularda berilgan topshiriqlarni mustaqil bajarib kelish;

- mavzuga oid laboratoriya ishlarini bajarish uchun kerakli asbob-uskunalarni yig'ish, natijalar olish va olingan natijalarni umumlashtirish;

- berilgan mavzu bo'yicha referat tayyorlash (semestr davomida bir fan uchun bittadan ko'p bo'lmagan ravishda)

- amaliyotdagi (korxonada va tashkilotlardagi) mavjud muammoning echimini izlash va bu bo'yicha muqobil echim taklif qilish;

- kuzatishlar (o'simlik va boshqa mavjudotlar rivojlanishi va hokazolarga oid) natijasida har xil tavsifnoma, jadvallar tuzish va tahliliy xulosalar tayyorlash;

- berilgan mavzu bo'yicha fan yangiliklari yoritilgan holda taqdimot materiallari tayyorlash (Power point);

- muayyan mavzuni to'liq yoritish va mukammal tarzda o'zlashtirish uchun yordam beradigan ko'rgazmali materiallar (jadvallar, chizmalar, rasmlar, xaritalar, maketlar, modellar, grafiklar, namunalar, musiqiy asar, kichik badiiy asar va hokazolalar) tayyorlash;

- tekstni lug'at yordamida tarjima qilish, sintaktik xamda sintaksis tahlil qilish va hokazo;

- hisob-kitob va grafik ishlarini bajarish;

-amaliy mazmundagi (oʻtilgan mavzular boʻyicha) nostandart masalalarni echish va ijodiy ishlash;

- oʻtilgan mavzular boʻyicha mustaqil ravishda test yoki munozarali savollar toʻplamini va topshiriqlarni tayyorlash;

- ilmiy maqola, tezislar va maʼruza tayyorlash;

- kurs ishi (loyihalari)ni bajarish;

- bitiruv malakaviy ishi va magistrlik dissertatsiyasi uchun materiallar toʻplash;

-uy vazifalarini bajarish va boshqalar.

Talaba har bir fan boʻyicha mustaqil taʼlimni tashkil etishda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi va alohida joriy nazorat sifatida baholanadi:

-mavzular boʻyicha konspekt (referat va taqdimot) tayyorlash. Nazariy materialni puxta oʻzlashtirishga yordam beruvchi bunday usul oʻquv materialiga diqqatni koʻproq jalb etishga yordam beradi. Talaba konspekti turli nazorat ishlariga tayyorgarlik ishlarini osonlashtiradi va vaqtni tejaydi.

-oʻqitish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimlari bilan ishlash. Talabalar maʼruza va amaliy mashgʻulotlar davomida olgan bilimlarini oʻzlashtirishlari, turli nazorat ishlariga tayyorgarlik koʻrishlari uchun tavsiya etilgan elektron manbalar, innovatsion dars loyihasi namunalari, oʻz-oʻzini nazorat uchun test topshiriqlari va boshqa ishlanmalardan foydalanadi.

-fan boʻyicha qoʻshimcha adabiyotlar bilan ishlash. Mustaqil oʻrganish uchun berilgan mavzular boʻyicha talabalar tavsiya etilgan asosiy adabiyotlardan tashqari qoʻshimcha oʻquv-ilmiy adabiyotlardan foydalanadilar. Bunda rus va xorijiy tillardagi adabiyotlardan foydalanish ragʻbatlantiriladi.

-internet tarmogʻidan foydalanish. Fan mavzularini oʻzlashtirish va mustaqil ishlarini yozishda mavzu boʻyicha internet manbalarini topish, ular bilan ishlash nazorat turlarining barchasida qoʻshimcha reyting ballari bilan ragʻbatlantiriladi.

-mavzuga oid masalalar, keys-stadilar va oʻquv loyihalarini ishlab chiqish va ishtirok etish;

-amaliyot turlariga asosan material yigʻish, amaliyotdagi mavjud muammolarning yechimini topish, hisobotlar tayyorlash;

-ilmiy seminar va anjumanlarga tezis va maqolalar tayyorlash va ishtirok etish;

- mavjud laboratoriya ishlarini takomillashtirish, masofaviy (distansion) ta'lim asosida mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha metodik ko'rsatmalar tayyorlash va h.k.

Biroq, mustaqil ish uchun beriladigan topshiriqlarning hajmi va shakli, qiyinchilik darajasi semestr-dan-semestrga ko'nikmalar hosil bo'lishiga muvofiq ravishda o'zgarib oshirib boriladi, ya'ni talabalarning topshiriqlarni bajarishdagi mustaqilligi darajasini oshirib, ularni topshiriqlarni bajarishga tizimli va ijodiy yondashishga o'rgatib boriladi.

Mustaqil ishlarni tashkil etishda talabalarning akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyati hisobga olinib quyidagi tarzda amalga oshirilmoqda:

- fanning ayrim mavzularini o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, o'quv manbalari bilan ishlash;

- amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rib kelish;

- ma'lum mavzu bo'yicha referat tayyorlash;

- bitiruv malakaviy ishi va magistrlik dissertatsiyasi uchun materillar to'plash;

- hisob-kitob va grafik ishlarni bajarish;

- amaliy mazmundagi nostandart masalalarni echish va ijodiy ishlash;

- uy vazifalarini bajarish va boshqalar;

Yuqoridagilarni hisobga olib, har bir fandan talabalarga ularning mustaqil ishlab, amaliy bilimlari va ijodkorlik qobiliyatlarini oshirish maqsadida mavzular beriladi va referat shaklida 6-10 bet qilib yozib, rasmiylashtirish topshiriladi.

Talabalar mustaqil ishlarini amaldagi «Oliy ta'lim muassalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risidagi Nizom»ga asosan baholab boriladi.

Referat va boshqa yozma ish topshiriqlari natijalarini baholashda hajm miqdori emas, balki berilgan mavzuni yoritilganlik darajasi va uni talaba tomonidan mustaqil bajarilganlik va o'zlashtirilganlik darajasiga asosiy e'tibor qaratilishi hamda quyidagi mezonlar hisobga olinishi lozim.

9-10 ball (a'lo) bilan baholanadi:

- savolga atroflicha, aniq va to'g'ri javoblar yozilgan bo'lsa;

- o'quv rejadan tashqari (zamonaviy) materiallardan xabardorligi bilinib tursa;

- qonun va qoidalar, nazariyalar, tushunchalar va tasavvurlar to'g'ri va aniq yozilgan bo'lsa;

- bayonda ilmiy xatoliklarga yo'l qo'yilmay, material mazmunining ilmiy va mantiqiyliги saqlangan holda puxta yozilgan bo'lsa;

-bayonda orfografik va grammatik kamchiliklar uchramasa.

7-8 ball (yaxshi) bilan baholanadi:

-savolga yozilgan javoblar o'quv dasturi talablari doirasi bilan cheklangan, ammo to'g'ri bo'lsa;

-javobda ilmiylik buzilmagan, bayon mazmunida mantiq saqlangan bo'lsa;

-qonun-qoida, nazariya, tushuncha va tasavvurlar bayonida xatoliklar uchramasa;

-bayonda orfografik va grammatik xatolar uchramasa.

5-6 ball (qoniqarli) bilan baholanadi:

-savolga javob o'quv dasturi talablariga mos kelmasa, ya'ni tor doirada yoritilgan bo'lsa;

-qonun-qoida, nazariya, tushuncha va tasavvurlar bayonida ba'zi xatoliklar uchrasa;

-bayonda ba'zi orfografik va grammatik xatolar uchrasa.

3-4 ball (qoniqarsiz) bilan baholanadi:

-savolga javob juda tor doirada yoritilgan bo'lsa;

-qonun-qoida, nazariya, tushuncha va tasavvurlar bayonida qo'pol xatoliklar uchrasa;

-bayonda qo'pol orfografik va grammatik xatolar uchrasa.

1-2 ball (qoniqarsiz) bilan baholanadi:

-berilgan savolga javob yozilmasdan, boshqa savollarga javob yozilgan bo'lsa;

-qonun-qoida, nazariya, tushuncha va tasavvurlar bayonida qo'pol xatoliklar uchrasa;

-bayonda qo'pol orfografik va grammatik xatolar uchrasa.

Talabning mustaqil ishi uchun olgan ballari guruh jurnali va mustaqil ish maslahatlari jurnalida muntazam ravishda qayd qilib boriladi.

2. MUSTAQIL TA'LIMNI AMALGA OSHIRISH YUZASIDAN

KO'RSATMALAR

Mazkur ko'rsatmalar O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2009 yil 14 avgustdagi 286-sonli "Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish to'g'risida"gi buyrug'i bilan tasdiqlangan "Talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish" bo'yicha yo'riqnoma, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2010 yil 25 avgustdagi 333-sonli buyrug'i bilan amalga kiritilgan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risida Nizom" hisoblanadi.

Shuning uchun ham, mazkur uslubiy ko'rsatmada talabalar referat va mustaqil ishlarining asosiy shakllari va ularning mazmuni, mustaqil ishni amalga oshirishda talaba bajarishi lozim bo'lgan vazifalar, mustaqil ishni bajarish bo'yicha maslahatlarni tashkil etish, ularni nazorat qilish va baholash tartibi bayon etilgan. Bunda talabalar referat va mustaqil ishlarining mazmuni va asosiy shakllari fan doirasida bajariladi.

Xususan, har bir fan bo'yicha talabalar referat va mustaqil ishlarini tashkil etish ularda iqtisodiy bilim, dunyoqarash, ijtimoiy faollik va mustaqil fikrlashni shakllantirishga qaratilgan tadbirlar tizimini o'z ichiga oladi. U o'quv rejasi va fanlar dasturlarida ko'zda tutilgan zarur bilimlar va ko'nikmalarning talabalar tomonidan oqilona, kam vaqt va kuch sarflab o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

Hamda fanni o'qitish jarayonini takomillashtirish, talabaning qiziqishlarini, anglash faolligini va mustaqil ishlarini rivojlantirish yo'nalishida boradi, bunda ijodiy fikrlash, mustaqil o'qish, ko'nikma va layoqatlari shakllanadi.

Fanlardagi mavzularni o'zlashtirishda mustaqil ish uchun beriladigan topshiriqlarning shakli va hajmi, qiyinchilik darajasi semestr-dan-semestr-ga ko'nikmalar hosil bo'lishiga muvofiq ravishda o'zgarib va oshib borishi lozim. Ya'ni, talabalarning topshiriqlarni bajarishdagi mustaqilligi darajasini asta-sekin oshirib, ularning topshiriqlarni bajarishga tizimli va ijodiy yondashishga o'rganib borishi kerak. Bu esa talabalar uchun quyidagi yo'nalishlardagi ishlarni bajarish bilan belgilanadi:

-mavzuni mustaqil o'zlashtirish. Fanning xususiyati, talabalarning bilim darajasi va qobiliyatiga qarab ishchi o'quv dasturiga kiritilgan alohida mavzular talabalarga mustaqil ravishda o'zlashtirish uchun topshiriladi.

Bunda mavzuning asosiy mazmunini ifodalash va ochib berishga xizmat qiladigan tayanch iboralar, mavzuni tizimli bayon qilishga xizmat qiladigan savollarga e'tibor qaratish, asosiy adabiyotlar va axborot manbalarini ko'rsatish lozim.

-ko'rgazmali vositalar tayyorlash. Talabaga muayyan mavzuni bayon qilish va yaxshiroq o'zlashtirish uchun yordam beradigan ko'rgazmali materiallar tayyorlash vazifasi topshiriladi.

Mavzu o'qituvchi tomonidan aniqlanib, talabaga ma'lum ko'rsatmalar, yo'l-yo'riqlar beriladi. Ko'rgazmali vositalarning miqdori, shakli va mazmuni talaba tomonidan mustaqil tanlanadi. Bunday vazifani bir mavzu bo'yicha bir necha talabaga yoki talabalar guruhiga topshirish ham mumkin.

-mavzu bo'yicha testlar, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash. Talabaga mustaqil ish sifatida muayyan mavzu bo'yicha testlar, qiyinchilik darajasi har xil bo'lgan masalalar va topshiriqlar, munozaraga asos bo'ladigan savollar tuzish vazifasi topshiriladi.

Bunda o'qituvchi tomonidan talabaga testga qo'yiladigan talablar va uni tuzish qonun-qoidalari, qanday maqsad ko'zda tutilayotganligi, muammoli savollar tuzishda mavzuning munozarali jihatlarini qanday ajratish lozimligi, topshiriqlarni tuzish usullari bo'yicha yo'l-yo'riq beriladi.

-ilmiy maqola, tezislar va ma'ruzalar tayyorlash. Talabaga biron-bir mavzu bo'yicha (mavzuni talabaning o'zi ham tanlashi mumkin) ilmiy maqola, tezis yoki ma'ruza tayyorlash topshirilishi mumkin. Bunda talaba o'quv adabiyotlari, ilmiy-tadqiqot ishlari, dissertatsiyalar, maqola va monografiyalar hamda boshqa axborot manbalaridan mavzuga tegishli materiallar to'playdi.

-talabalarning ilmiy-nazariy konferensiyalari ham talabalar mustaqil ishlarining shakllaridan biridir. Kafedra professor-o'qituvchilari talabalar ilmiy-nazariy konferensiyasini tashkil etish orqali o'z ishini guruhning kasbiy yo'naltirilganligi, a'zolarining yosh tarkibi, qiziqishlarini hisobga olib, tabaqalashgan holda tashkil qilishi kerak.

Faqat shu holda talabalarning konferensiyani o'tkazishda faol ishtiroki va manfaatdorligi ta'minlanadi. Talabalarning ilmiy-nazariy konferensiyalarini bosqichma-bosqich o'tkazish maqsadga muvofiq.

Mustaqil ish mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish

Talabaning nazariy ma'lumotlarni va umumiy fanni o'zlashtirish darajasi uning amaliy masalalarni, seminar mashg'uloti materiallarini bajarishi, uy vazifalarini bajara olishi darajasi va samaradorligi bilan

aniqlanadi. Shuning uchun talaba fanning har xil bo'limlaridagi vazifalarni mustaqil yechish ko'nikmalarini egallashi lozim. Bu jarayonda talaba o'rganilayotgan fanning ma'nosiga chuqurroq etib borgan holda aniq amaliy vazifalarni echishda umumiy nazariy qonuniyatlarni qo'llay oladi.

Darsdan tashqari mustaqil ish va uy vazifasi sifatida talabaga o'rtacha qiyinlikdagi va uslubiy manbalardan foydalangan holda yechish mumkin bo'lgan vazifalarni berish maqsadga muvofiq. Bunda o'tilgan nazariy ma'lumotlar va mashg'ulotlar yechishning maxsus uslublaridan foydalanilishiga e'tibor berish kerak. Shunday qilib, talabaning fanga kiruvchi har xil bo'limlariga oid mashg'ulotlarni nazariy ma'lumotlarga tayanib yechishga o'rgatiladi.

Talabaning amaliyot darslaridagi topshiriqlarni, uy vazifalarini va mustaqil ish topshiriqlarini bajarishini nazorat qilish va baholashning quyidagi uslubiga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq:

- uy vazifalarini tekshirish;
- nazorat topshiriqlarini bajarishini tekshirish;
- dars davomida o'zlashtirishini nazorat qilish;
- mustaqil ish topshiriqlari himoyasi.

Mustaqil ish topshirig'ini bajarishdan kutiladigan natijalar: mavzuga oid qo'shimcha materiallarni axborot manbalaridan topish, konspektlashtirish va ularni o'rganish; mavzu yuzasidan matn bilan ishlash, bilimlarni tizimlashtirish va mustahkamlash; fikrlar ketma-ketligini tanlay bilish; o'z ustida malakaviy ishlashni o'rganib borish; nutqni rivojlantirish va eslab qolish qobiliyatini kuchaytirish; o'z fikri va guruh fikrini tahlil qilib, bir yechimga kelib, yakuniy xulosani bayon qilish; mavzuni hayotiy voqealar bilan bog'lash; mustaqil tahlil va xulosalar chiqara bilish; pedagogik mahoratni shakllantirib borish.

Mustaqil ish turlari

-takrorlash va mashq qilish: takrorlash; tahlil qilish; qayta ishlash; mustahkamlash; chuqurlashtirish; eslab qolish; ko'nikma hosil qilish; malakani shakllantirish;

-yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtirish: yangi mavzular; axborot manbaini izlab topish va konspektlashtirish; mustaqil fikrlar tuzish;

-ijodiy harakterdagi ishlar: muammoli vaziyatlarni aniqlash; test va topshiriq tuzish; taqdimot. tayyorlash; mustaqil qaror qabul qilish; yangi usullar yaratishga intilish.

Mustaqil ta'limni tashkil qilishda foydalanadigan vositalar

-nazariy mashg'ulotlarda foydalanadigan vositalar (darslik; o'quv qo'llanma; masala va mashq to'plami; diapzaitivlar; lug'atlar; masalalar

to'plami; magnit yozuv; video yozuv; o'rgatuvchi dasturlar; multimedia va h.k.);

-amaliy mashg'ulotlarda foydalaniladigan vositalar (yo'riqnoma to'plami; tabiiy o'qitish vositalari; harakatlanuvchi modellar; o'quv plakatlari; trenajerlar; yo'riqnoma texnologik kartalar; transparantlar; modellar; elektron kitoblar; maketlar va x.z.)

Referat yozish bo'yicha qisqacha ko'rsatmalar

-referat tayyorlashda hal etilishi nazarda tutiladigan vazifalar: o'quv predmetning dolzarb nazariy masalalari bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish, talaba tomonidan mavzuga oid olingan nazariy bilimlarni ijodiy qo'llash ko'nikmalarini hosil qilish; tanlangan kasbiy sohada mavjud mahalliy va xorijiy tajribalarni mavjud sharoitlarda ularni amaliy jihatdan qo'llash imkoniyatlari va muammolarni o'zlashtirish; tanlangan mavzu bo'yicha har xil manbalarni o'rganish qobiliyatini takomillashtirish va ularning natijalari asosida tanqidiy yondashgan tarzda mustaqil holda materialni ifoda etish, ishonchli xulosa va takliflar qilish; yozma ko'rinishdagi ishlarni to'g'ri rasmiylashtirish ko'nikmalarini rivojlantirish.

-referat ustida ishlash tartibi: mavzuni tanlash; mavzu bo'yicha asosiy manbalarni o'rganish; zaruriy materiallarni konspektlashtirish; tadqiqot rejasini tuzish; yig'ilgan materiallarni tartibga solish va yozish; foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini rasmiylashtirish; referatni rasmiylashtirish.

-referatni rasmiylashtirish tartibi: A4 shakldagi qog'ozga 12-shrift, 1,5 interval, qog'ozning bir tomonida chapdan – 2,5 sm, o'ngdan – 1,5 sm, yuqori va pastdan – 2 sm xoshiya qoldiriladi; matn sahifalariga tartib raqami beriladi, 1-titul varag'i, 2-reja, 3-betdan boshlab sahifalanadi; referat hajmi 6-10 bet bo'lishi lozim.

Referat matnini rasmiylashtirish tartibi: titul varag'i; ish rejasini; kirish; asosiy qism (kamida 3 ta banddan iborat bo'lishi lozim); xulosa; foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati; ilova (jadval, diagramma, grafik, rasm, sxema va hokazo).

3. TALABALARGA MUSTAQIL ISH UCHUN BERILADIGAN NAZORAT VA TEST TOPSHIRIQLARI

Talabalar mustaqil ishi bo'yicha maslahatlar darsi fanning kalendar-tematik rejasiga muvofiq o'tkaziladi. Masalan, "Turizm: nazariya va amaliyot" fani bo'yicha talabalarning mustaqil ish mavzulari va mazmuni, ularni bajarish yuzasidan hisobot shakllari quyidagi jadval ko'rinishida bo'ladi:

1-jadval

“Turizm: nazariya va amaliyot” fani bo'yicha talabalarning mustaqil ishlarni bajarish yuzasidan hisobot shakllari

T/r	Mavzu nomlari	Mashg'ulot turi	Ajratilgan vaqt	Talaba mustaqil ishi mavzusi va mazmuni	Hisobot shakli
1.	Turizm sohasi resurslarini tahlil qilish	Yozma uy ishi	2	Mavzu haqida ma'lumot to'plash va mustaqil o'rganish	Ma'lumotlar to'plash
2.	O'zbekistonda tarixiy obidalarni saqlab qolishda YUNESKO tashkiloti bilan hamkorlik	Referat	2	Mavzuga oid turistik korxonalar faoliyatidan samarali foydalanish yo'llarini ishlab chiqish	Keyslar yechish
3.	O'zbekistonning tarixiy shaharlari	Taqdimot	2	O'zbekistonning mavjud tarixiy shaharlari haqida rasmi taqdimot tayyorlash	Power Point dasturida ishlash

Jadvalga muvofiq, maslahat darsi tegishli fan o'qituvchisi tomonidan o'tkaziladi. Fan o'qituvchisi maslahat darsida quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

-talabalar mustaqil ishlari topshiriqlarini bajarish yuzasidan tegishli yo‘llanma beradi.

-topshiriqni bajarish rejasini tuzishga yordamlashadi;

-tegishli adabiyotlar axborot manbalarini tavsiya qiladi;

-talabalar mustaqil ishlari yuzasidan tayyorlangan ishlanma, hisobot, referat, hisob-kitob va topshiriq natijalarini qabul qiladi hamda baholaydi.

Talabalar mustaqil ishi bo‘yicha maslahatlar o‘quv jarayonining 1 va 2 smenada tashkil etilishiga qarab, talabalarning darsdan bo‘sh vaqtlarida dars jadvaliga kiritiladi.

Shu bilan birga, mustaqil ishlarning bajarilishi “Talabalar bilimni nazorat qilish va baholashning reyting tizimi Nizomi” talablari asosida nazorat qilinadi va baholanadi. Mustaqil ishlarini baholash mezonlari talabalarga o‘quv yili boshlanishi oldidan uslubiy materiallar bilan birgalikda tarqatiladi.

Bu borada fanlar bo‘yicha talabalar mustaqil ishlarini joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida quyidagi topshiriqlarni bajarish orqali nazorat qilish hamda baholash tavsiya etiladi:

2-jadval

Fan bo‘yicha talabalarning mustaqil ishlarni bajarish asosida joriy nazoratni baholash jadvali

T. r	Mustaqil ish shakllari	Topshirish muddati	Baholash mezonlari
1.	Talabani mustaqil fikrlashga hamda analitik qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladigan yozma referatni yozish va himoya qilish	2016 yil sentyabr-noyabrgacha	5 ballgacha
2.	Fan bo‘yicha mavzularni qamrab olgan misol, masala va testlarni yechish	2016-2017 yil dekabr-yanvargacha	5 ballgacha

**“Turizm: nazariya va amaliyot” fanidan mustaqil tayyorlanish uchun
test topshiriqlari**

1. Dunyo miqyosida eng asosiy ziyoratgohlar qaysi javobda to`liq ko`rsatilgan?

- a) Makka (Saudiya Arabistoni), Dehli (Hindiston), Ierusalim (Isroil), Parij (Fransiya), Turin (Italiya)
- b) Madina (Saudiya Arabistoni), Mumbai (Hindiston), Vefliem (Isroil), Parij (Fransiya), Rim (Italiya)
- c) Makka (Saudiya Arabistoni), Benares (Hindiston), Ierusalim (Isroil), Lordes (Fransiya), Vatikan (Italiya)
- d) Madina (Saudiya Arabistoni), Mumbai (Hindiston), Lordes (Fransiya), Vatikan (Italiya)

2. “O`zbekturizm” MKsining ma`lumotlariga qaraganda, O`zbekiston hududida hammasi bo`lib, nechta me`morchilik va arxeologik yodgorliklar mavjud?

- a) 4134
- b) 5567
- c) 3450
- d) 2590

3. Fayoztepa arxeologik yodgorligi O`zbekistonning qaysi shahrida joylashgan?

- a) Beruniy
- b) Termiz
- c) Nukus
- d) Samarqand

4. Igor Savitskiy muzeyi O`zbekistonning qaysi shahrida joylashgan?

- a) Toshkent
- b) Buxoro
- c) Nukus
- d) Termiz

5. Minorayi kalon O`zbekistonning qaysi shahrida joylashgan?

- a) Nukus
- b) Buxoro
- c) Toshkent
- d) Termiz

6. O`zbekiston hududida nechta me`morchilik obyektlari mavjud?

- a) 2890 ta
- b) 1548 ta

- c) 850 ta
- d) 2540 ta

7. Bibixonim masjidi O`zbekistonning qaysi shahrida joylashgan?

- a) Toshkent
- b) Samarqand
- c) Termiz
- d) Nukus

8. “Ayozal`a” O`zbekistonning qaysi hududida joylashgan?

- a) Toshkent
- b) Termiz
- c) Nukus
- d) Qoraqalpog`iston Respublikasi

9. O`zbekiston hududida nechta arxeologik yodgorliklar mavjud?

- a) 2586 ta
- b) 1548 ta
- c) 3540 ta
- d) 4890 ta

10. Xitoyning turistik jozibador joylari qaysilar?

- a) Buyuk Xitoy Devori, Imperator saroyi, Gugun muzeyi, Tyan Tan ibodatxonasi, yozgi Imperator saroyi, Min sulolasi davri yer osti qabrlari
- b) Imperator saroyi, Gugun muzeyi, Tyan Tan ibodatxonasi, Buyuk Xitoy devori, yozgi Imperator saroyi, Pxenyan shaxridagi ochiq muzey
- c) Imperator saroyi, Gugun muzeyi, Tyan Tan muzeyi, Buyuk Xitoy devori, yozgi Imperator saroyi, Min sulolasi davri yer osti qabrlari
- d) Imperator saroyi, Seul yaqinidagi tog`lar, Tyan Tan ibodatxonasi, Buyuk Xitoy devori, yozgi Imperator saroyi, Min sulolasi davri yer osti qabrlari

11. Haj va Umra ziyorati turizmi rivojlangan yagona davlat qaysi?

- a) BAA
- b) Saudiya Arabistoni
- c) Eron
- d) Vatikan

12. Buxoro va Xivaning 2500 yilligi qachon nishonlandi?

- a) 1998-yilda
- b) 1999-yilda
- c) 2000-yilda
- d) 1997-yilda

13.Buxoro shahridagi zardushtiylik ibodatxonasining qoldiqlari topilgan obidani toping.

- a) Ismoil Somoniy
- b) Chashmai Ayub
- c) Mo`g`oki Attoriy
- d) Qasri Orifon

14.Buxoroga keladigan sayyohlar turizmning qaysi yo`nalishi asosida keladilar?

- a) tashkil qilingan turizm
- b) tashkil qilinmagan turizm
- c) mohir qo`llar turizmi
- d) tashkil qilinayotgan turizm

15.Litvaning YUNESKO tarkibiga kiritilgan tarixiy shahri qaysi shahar?

- a) Kaunas
- b) Vilnyus
- c) Klaypeda
- d) Neris

16.Ermitaj muzeyi qaysi shaharda joylashgan?

- a) Moskvada
- b) Sankt-Petrburgda
- c) Novosibirskda
- d) Minskda

17.Jvari, Promi va Oshki ehromlari qayerda joylashgan?

- a) Misrda
- b) Saudiya Arabistonida
- c) Eronda
- d) Gruziyada

18.Zangori masjid Ozarbayjonning qaysi shahrida joylashgan?

- a) Boku shahri
- b) Tabriz shahri
- c) Ganja shahri
- d) Mingechaur shahri

19.Buxorodagi maqbaralar to`g`ri keltirilgan qatorni toping.

- a) Imom al-Buxoriy, Abu Mansur Motrudiy, Ruhobod
- b) Go`ri Amir, Buyon Qulixon, Uch avliyo
- c) Said Allovuddin, Imom At-Termiziy, Uch avliyo
- d) Ismoil Somoniy, Chashmai Ayub, Buyon Qulixon

20.Xo`ja Alamdor maqbarasi qayerda joylashgan?

- a) Samarqandda
- b) Buxorada
- c) Toshkentda
- d) Xivada

21. Shofiiya diniy oqimining rivojlanishiga hissa qo`shgan olim kim?

- a) Ahmad Yassaviy
- b) Qaffol ash-Shoshiy
- c) Bahouddin Naqshband
- d) Najmiddin Kubro

22. Amir Temur qaysi maqbarani bunyod etgan?

- a) Zangi Ota
- b) Qaffol Shoshiy
- c) Xo`ja Alambardor
- d) Cho`pon Ota

23. Ko`kaldosh madrasasi nechanchi asrda va kim tomondan qurilgan?

- a) 14-asrda Amir Temur
- b) 15-asrda Husayn Boyqaro
- c) 15-asrda Alisher Navoiy
- d) 16-asrda Ko`kaldosh

24. Farg`ona viloyatidagi O`rda Xudoyorxon saroyi qachon qurilgan?

- a) 19-asr boshlarida
- b) 19-asr oxirlarida
- c) 19-asrning 2-yarmida
- d) 20-asr boshlarida

25. "Temur Darvozasi" qaysi yo`lda joylashgan?

- a) Jizzax-Toshkent
- b) Andijon-Namangan
- c) Jizzax-Samarqand
- d) Buxoro-Navoiy

4. MASHG'ULOTGA TAYYORGARLIK KO'RISH UCHUN TALABALARGA BERILADIGAN MUSTAQIL ISH TOPSHIRIQLARI

“Turizm: nazariya va amaliyot” fanidan quyidagi mavzular mustaqil ta’lim mavzulari sifatida tavsiya qilinadi:

- tarixiy-madaniy, ziyorat, ekoturizm va xalqaro ekoturizm resurslari;
- hunarmandchilik yo‘nalishlarini turizm sohasiga jalb qilish;
- milliy meros boyliklaridan turizmda foydalanish;
- doimiy yashab turgan joydagi turistik resurslar haqida ma’lumotlar to‘plash;
- turizm marshrutlarini ishlab chiqish;
- ekskursiya marshrutlarini ishlab chiqish;
- ziyosat marshrutlarini ishlab chiqish;
- mehmonxonalar haqida ma’lumotlar to‘plash;
- dunyo mehmonxonalar haqida ma’lumotlar to‘plash;
- ovqatlantirish korxonalar haqida ma’lumotlar to‘plash;
- xalq milliy o‘yinlari haqida ma’lumot to‘plash;
- O‘zbekiston qo‘riqxonalar haqida ma’lumotlar to‘plash;
- O‘zbekiston parklari haqida ma’lumotlar to‘plash;
- dunyo parklari haqida ma’lumotlar to‘plash;
- ichki turizmning maqsad va vazifalarini o‘rganish;
- xalqaro turizmning maqsad va vazifalarini o‘rganish;
- O‘zbekistonning ekoturistik rayonlarini o‘rganish;
- O‘zbekistonning tabiat mintaqalari va tabiiy resurslarini o‘rganish;
- O‘zbekistonning turizm turlari o‘rganish;
- O‘zbekiston bo‘yicha ichki turizm dinamikasi o‘rganish;
- O‘zbekiston bo‘yicha xalqaro turizm dinamikasi o‘rganish;
- dunyo bo‘yicha xalqaro turizm dinamikasi o‘rganish.

Biroq, mustaqil ishni tashkil etish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatma va tavsiyalar, keys-stadi, vaziyatli masalalar to‘plami ishlab chiqiladi. Unda talabalarga asosiy ma’ruza mavzulari bo‘yicha amaliy topshiriq, keys-stadilar yechish uslubi va mustaqil ishlash uchun vazifalar belgilanadi. Shu bilan birga, talabalarga mavzu bo‘yicha xorijiy mamlakatlar tajribalarini o‘rganib, tahlil qilish ularning bilimlarini yanada mustahkamlaydi. Ularga kurs ishi mavzulari ham o‘rgangan bu ma’lumotlari asosida beriladi va beriladigan mavzular quyigalardan iborat bo‘ladi:

1. Turistik bozorning shakllanishi va uni rivojlantirish istiqbollari (Ispaniya misolida)

2. Diniy turizmni rivojlantirish imkoniyatlari (Saudiya Arabistoni misolida)
3. Tarixiy va madaniy turizmni rivojlantirish imkoniyatlari (Misr misolida)
4. Qishloq turizmini rivojlantirish imkoniyatlari (Osiyo mamlakatlari misolida)
5. Kanadada turizm infratuzilmasini rivojlantirish muammolari va yechimlari
6. Turkiyada ichki turizmni rivojlantirish imkoniyatlari
7. Yevropa turizmida diniy-ziyoratgoh resurslarning ta'rifi
8. Buyuk ipak yo'li va uning xorijiy mamlakatlar o'rtasidagi turizmni rivojlantirish jihatlari
9. Osiyo mamlakatlarida milliy hunarmandchilik turizmini rivojlantirish imkoniyatlari
10. Yevropa turizmida standartlashtirish va sertifikatsiyalash
11. Singapurda turizm sohasining rivojlanish bosqichlari
12. AQShda turistik xizmatlar va ularning eksporti
13. Yevropa mintaqasining turizm bilan bog'liq sayohatlari
14. Osiyoda tarixiy obidalar turizmi
15. Shvetsiyada mehmonxonalarining turlari va tasnifi
16. Fransiyada turizm industriyasini rivojlantirish chora-tadbirlari
17. Hindiston turizmini rivojlantirishda tarixiy shaharlarning o'rni
18. Germaniya turizmi sohasida mehmonxona xo'jaligining o'rni
19. Turizm sohasida axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari va xorijiy mamlakatlar tajribalari
20. Rossiyaning turistik resurslari va ulardan samarali foydalanish
21. Turistlar xavfsizligini ta'minlash xususiyatlari (Afrika mamlakatlari misolida)
22. Polsha turizmi sohasida ovqatlantirish xizmatlari
23. Yaponiya turizmi sohasida transport xizmatlari
24. Turizm marshrutlarini tayyorlash usullari va tasnifi (Buyuk Britaniya misolida)
25. Turoperatorlar va turagentlar faoliyati (Turkiya turizmi misolida)
26. Tailandda turizm infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari
27. Avtomobil yo'llarining turizm infratuzilmasidagi o'rni (BAA misolida)
28. Ekologik turizmning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'rni (Kenya misolida)
29. Saudiya Arabistoni geografiasining turistik jozibadorligi

30. Davlat tabiat qo'riqxonalari (Braziliya misolida)
31. Turistik mahsulotlarni shakllantirish imkoniyatlari va Yevropa tajribasi
32. Yevropa turizmi xizmatlari bozoriga ta'sir etuvchi omillar
33. AQShda turizm infratuzilmasini rivojlantirish xususiyatlari
34. G'arb mamlakatlari turizmini rivojlantirishda milliy merosning o'рни va mohiyati
35. Turistlarni ovqatlantirishda servis xizmat ko'rsatishni tashkil qilish (Malayziya misolida)
36. Xalqaro turizmning Braziliya mamlakati iqtisodiyotiga ta'siri
37. Gastronomiya turizmini shakllantirishda milliy taomlar turlari (Janubiy Koreya misolida)
38. Sayohat-ekskursiya byurolari (Ruminiya misolida)
39. Davlatning turizm siyosatini amalga oshirish mexanizmi (Panama misolida)
40. Turistlar oqimini ta'minlab beruvchi mamlakatlar (Yevropa mamlakatlari misolida)
41. Xalqaro turizmning rivojlanish dinamikasi (Bangladesh misolida)
42. Efiopiya qonun va qarorlarida turistlar hayoti xavfsizligini ta'minlash
43. Ilmiy turizmni rivojlantirish imkoniyatlari (B.Britaniya misolida)
44. Sog'lomlashtiruvchi dam olish turizmini rivojlantirish yo'llari (Finlyandiya misolida)
45. Tarixiy obidalar turizmi (Filippin misolida)
46. Turistik axborot resurslari (Meksika misolida)
47. Dunyoning yangi mo'jizalari (Malayziya misolida)
48. Pokiston turizmini rivojlantirishda tarixiy shaharlarning o'рни
49. Vengriyaning tarixiy va arxitektura yodgorliklariga ega bo'lgan shaharlari
50. Niderlandiya turizmida joylashtirish vositalari va xizmatlari
51. Portugaliyada xalqaro turizmni rivojlantirish muammolari va ularni hal etish yo'llari
52. Sharq xalqlari turizmida turistik resurslarning turlari va tutgan o'рни
53. Italiya turizmida turistik mahsulotni ishlab chiqilishi xususiyatlari
54. Rivojlangan mamlakatlarda turizm xizmatlarining tasniflanishi va xususiyatlari
55. Gretsiyaning tarixiy shaharlari - turistik obyektlar sifatida
56. Avstraliyada ekologik turizmni rivojlantirish imkoniyatlari

57. Norvegiyada umumiy ovqatlanish korxonalari tasnifi
58. Islandiya turizmi sohasida transport vositalari
59. Rivojlangan davlatlarda aktiv turizmning rivojlanishi
60. Rivojlanayotgan davlatlarda passiv turizmni rivojlanishi
61. Eronda turizmni rivojlantirish shart-sharoitlari
62. Quvaytda turizm industriyasining rivojlanish omillari
63. Kiprda zamonaviy turizm turlarining rivojlanishi
64. Chexiya turizmida ovqatlanish sohasining tutgan o'ri
65. Albaniya turizmida barqaror rivojlanish omillari
66. Shveysariya turizmi rivojida intensiv omillarning o'ri
67. Bolgariya turizmida sayr-tomoshalarning ahamiyati
68. Daniya turizmining jozibadorlik jihatlari
69. Lyuksemburg turizmida talab va taklif omillari
70. Argentinada turizmning rivojlanish imkoniyatlari

5. KEYS-STADI TOPSHIRIQLARI

Keys texnologiya. “O‘zbekistonda tarixiy obidalarni saqlab qolishda YUNESKO tashkiloti bilan hamkorlik”

PEDAGOGIK ANNOTATSIYA

O‘quv predmeti. Keys bakalavriat ta’lim darajasi 1-bosqich talabalari uchun “Turizm: nazariya va amaliyot” fanining “Turizm sohasini rivojlantirishda O‘zbekistondagi tarixiy shaharlar va ulardagi turistik obidalarni o‘rganish” mavzusi bo‘yicha tayyorlangan.

Keysning maqsadi: Turistik resurslarini o‘rganish va aniqlash, ularning saqlab qolishda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik yo‘llarini ishlab chiqish.

Kutilayotgan natijalar:

- O‘zbekistondagi obidalarni o‘rgangan holda muammoni aniqlash;
- muammoli holatning ko‘nikmalari va uning asosida kichik muammolarning iqtisodiy asoslangan yechimlari ishlab chiqish;
- korxonaning faoliyatini hisobga olgan holda muammoni yechilishning ketma-ketligini aniqlash;

Keysni muqaffaqiyatli yechish asosida talabalar quyidagi natijalarga erishishlari lozim:

- O‘zbekistondag obidalarni ro‘yxatini bilish;
- turistik resurslarini saqlash usullarini o‘rganish;
- tarixiy obidalarni turmahsulotda ishlatish yo‘llarini aniqlash;

Mazkur keys ilmiy maqola asosida keltirilgan.

Keysda ishlatilgan ma’lumotlar manbai. “Iqtisodiyot va innovatsion ta’lim” jurnali, №3-4. 2016.

Mazkur keys ilmiy tadqiqotlari asosida syujetsiz keys toifasiga kiradi. Keysning obyekt bo‘lib, O‘zbekiston obidalarini tahlili berilgan.

Didaktik maqsadlarga ko‘ra keys tahlil qilishni o‘rgatish va faoliyatni omillar bo‘yicha baholashni aniqlashdan iborat.

Ushbu keysdan “O‘zbekiston tarixi”, “Iqtisodiy geografiya”, “Turizm va mehmonxona xo‘jaligi menejmenti” va “Turizm va mehmonxona xo‘jaligi marketingi” fanlari mashg‘ulotlarida ham foydalanish mumkin.

KIRISH

Keysning dolzarbligi: O‘zbekistondagi tarixiy obidalarni saqlab qolishda YUNESKO tashkiloti bilan xalqaro hamkorlikning yo‘lga qo‘yilishi hozirgi kunda o‘ziga xos natijalarni bermoqda. Agar Samarqandni “Sharq durdonasi” va Buxoroni “Buxoroi sharif” deb nomlashsa, unda Toshkent Markaziy Osiyodagi eng go‘zal shahar, deb nomlanishga haqlidir. U respublikaning eng yirik shahri bo‘lib, o‘zida hozirgi zamonaviy inshootlar bilan birga sharqona me‘morchilikni mujassamlashtirgan.

Keysning maqsadi: Turistik resurslarini o‘rganish va aniqlash, ularning saqlab qolishda xalqaro tashkilotlari bilan hamkorlik yo‘llarini ishlab chiqish.

Keysda masalaning yechimi orqali quyidagi natijalarga erishish mumkin:

- O‘zbekistondagi obidalarni o‘rgangan holda muammoni aniqlash;
- muammoli holatning ko‘nikmalari va uning asosida kichik muammolarning iqtisodiy asoslangan yechimlarini ishlab chiqish;
- korxonaning faoliyatini hisobga olgan holda muammoni yechilishining ketma- ketligini aniqlash.

Keys: O‘zbekistonda tarixiy obidalarni saqlab qolishda YUNESKO tashkiloti bilan hamkorlik

O‘zbekistondagi tarixiy obidalarni saqlab qolishda YUNESKO tashkiloti bilan xalqaro hamkorlikning yo‘lga qo‘yilishi hozirgi kunda o‘ziga xos natijalarni bermoqda. Agar Samarqandni “Sharq durdonasi” va Buxoroni “Buxoroi sharif” deb nomlashsa, unda Toshkent Markaziy Osiyodagi eng go‘zal shahar, deb nomlanishga haqlidir. U hududning eng yirik shahari bo‘lib, o‘zida hozirgi zamonaviy inshootlar bilan birga sharqona me‘morchilikni mujassamlashtirgan. XI asrda Toshkent haqida o‘sha davrning yirik tadqiqotchi olimlari bo‘lmish Beruniy va Mahmud Qoshg‘ariylar o‘z asarlarida ma‘lumot berishgan.

Ko‘pchilik unda tarixiy yodgorliklar kam, deb atashadi. Albatta, unda Samarqand, Buxoro va Xivadagi kabi arxitektura obidalari majmuasi kam. Toshkent mamlakatning siyosiy, iqtisodiy va ilmiy markazi hisoblanadi. Kelajakka intilayotgan yosh mustaqil mamlakatning poytaxtidir. Lekin, uning tarixi ham gavhar kabi uni yanada jozibador qiladi.

Samarqand haqli ravishda “Islom olamining qimmatbaho gavhari” va “Sharq durdonasi” deb nomlanadi. Uning tarixi Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Al-Xorazmiy, Rudakiy, Umar Xayyom, Jomiy va Navoiy kabi ulug‘ ulamo olimlar va shoirlarning nomlari bilan chambarchas

bog'liq. Aniq fanlar va qurilish ishlarining yutug'i ko'rgazmali madaniyatni juda tez rivojlanishiga olib keldi. Bu ayniqsa Samarqandning noyob arxitektura obidalarida namoyon bo'ladi. Shahar, ayniqsa Amir Temur va Temuriylar hukmronlik qilgan davrida o'z rivojlanish cho'qqisiga erishgan. Samarqandga kelgan mehmonlar, albatta birinchi navbatda Registon maydoni bilan tanishadilar.

Temurning nabirasi Mirzo Ulugbek ilm-fan xomiysi maydonning markaziy qismini qurdira boshlagan. Hozirgi kunga kelib, Registon maydonini uchta ajoyib inshootlar, ya'ni Ulugbek, Sherdor va Tillakori madrasalari bezab turadi. Afrosiyob shaharchasida joylashgan Samarqand Shoxi Zinda maqbaralar ansambli butun Markaziy Osiyo arxitektura inshootlarining faxri hisoblanadi. Amir Temur buyrug'i bilan Go'ri Amir maqbarasi ham bunyod qilingan. Bu qurilish boshlanishiga 1403 yil Sohibqironning sevimli nabirasi Muhammad Sultonning bevaqt o'limi sabab bo'ldi.

Qadimdan musulmon olamida Buxoroni Buxoroi Sharif deb nomlashgan. Shahar 2500 yillik tarixga ega. Masalan, ulkan Ark saroyi eramizgacha IV asrda bunyod etilgan. Yil sayin ko'chalari o'zgarib bordi va binolar o'zgacha ko'rinish oldi. Hozirgi sayohatchi bu ko'p asrlik o'zgarishlarni bizgacha saqlanib kelingan yodgorliklar namunasida ko'rish mumkin. Ulardan 140 tadan ortig'i saqlanib qolgan.

Buxoro hukmroni Arslonxon yangi minora qurdirishga qaror qilgan. Bu minorani 1127 yil qurib bitkazishgan va Minorai Kalon deb nomlashgan. "Minorai Kalon" shaharning barcha inshootlarini birlashtiradi. Eng muhimi bu yerda XII asrda qurilgan shahar masjidi bo'lgan Masjidi Kalon joylashgan. Shaharning eng ko'zga ko'ringan arxitektura ansambli bu Labi Hovuzdir. Bu yer markazida joylashgan va 1620 yilda qazilgan hovuz bo'lgani uchun Labi Hovuz deb nomlashgan. Ansamblga ajoyib arxitektura yodgorliklari bo'lgan Ko'kaldosh madrasasi, Xonaqa va Nodira Davon Begi madrasalari kiradi. Albatta, Buxoroning oxirgi Amiri qurdirgan Sitorai Mohi Xosa saroyini ham ziyorat qilish kerak.

Markaziy Osiyoning buyuk daryosi bo'lgan Amudaryoning quyi qismida, qit'aning ulug' cho'llari bo'lmish Qoraqum va Qizilqum oralig'ida Xorazm joylashgan. Xivada sayohatchi tez va to'liq ravishda o'tgan asrlarga qaytadi, Ichan qal'a devorlarini ortda qoldirib. Ichanqal'aga to'rtta tomondan darvoza olib kiradi. Bu yerda Kaltaminor ham joylashgan. U aylana shaklida qurilgan bo'lib, moviy rangdagi g'ishtlar bilan bezatilgan va huddi o'rtasidan kesib tashlanganga

o'xshaydi.

Kaltaminor yonida Aminxon madrasasi joylashgan. Bu yerda saqlanib qolgan eng yirik diniy o'quv maskanlaridir. Bu inshootning o'ziga xos tomoni undagi ikkilangan hujralarning borligi. Bu hujralar talabalar yashashi uchun foydalanilgan. O'z chiroyi bilan Juma masjidi ham ajralib turadi. Kirish darvozalarida uning qurilish sanasi 1778-1782 yillar yozuvlari saqlanib qolgan. Eski shahar tashqarisida ham ajoyib yodgorliklar kam emas. Butun Xorazm o'lkasi ularga boydir.

YUNESKO tomonidan qo'riqlanadigan yodgorliklar qatoriga yaqinda 2500 yilligi nishonlangan Shahrisabz ham kiritilgan. Shahar tog' yon bag'rida ko'kalamzorliklarga boy joyda joylashgan. Kulolchilik va xalq amaliy san'ati bo'lmish to'quvchilikni qadimgi markazi hisoblanadi. Bu yurt Amir Temur vatanidir.

Buyuk davlat tashkil qilib, shon-shuhratga ega bo'lib ham Amir Temur bu yerga qaytib kelgan. Shahrisabz uning yoshligi va o'smirlik yillari o'tgan muqaddas joy bo'lib qolgan. Bu yerda Amir Temurning otasi, diniy ustoz Shamsiddin kulol, katta o'g'illari Jahongir va Umar Shayx dafn etilgan. Shahrisabzni zamondoshlari Amir Temur "taxtini ostonasi" deb atashgan. Amir Temur Shahrisabzni o'zining ulkan davlatini ikkinchi poytaxti qildi.

Xalqaro turizm bo'yicha maxsus ochiq iqtisodiy zonalar loyihasi O'zbekistonning quyidagi tarixiy-arxitektura yodgorliklarini o'z ichiga oladi:

-“Registon” ansambli (Sherdor madrasasi va Ulug'bek madrasasi, Tillakori masjid-madrasasi, Shayboniylar daxmasi, Chorsu savdo markazi);

- Amir Temur maydoni va maqbarasi;
- Xoja Ismoil Imom Buxoriy ansambli;
- Shohi Zinda maqbarasi;
- Bibixonim masjidi;
- Ruxobod maqbarasi;
- Afrosiyob shaharchasi;
- Ulug'bek rasadxonasi.

Turistlarning oqimi jadal o'sib borayotgan diniy yo'nalishdagi quyidagi obyektlar hisoblanadi:

- Xoja Ahror yodgorligi;
- Nodira Devonbegi madrasasi;
- Xoja Doniyor maqbarasi;
- Hazrati hizr masjidi;

- Oqsaroy maqbarasi;
- Ishratxona maqbarasi;
- Xoja Abdu Dorun yodgorligi;

Ilmiy-madaniy turizmga quyidagilar sezilarli qo'shimcha hisoblanadi:

- O'zbekiston xalqlari tarixi va madaniyati muzeyi;
- Afrosiyob shaharchasidagi Samarqand tarixi muzeyi;
- Ulug'bek ilmiy-tarixiy muzeyi;
- Viloyat o'lkashunoslik muzeyi;
- Alisher Navoiy muzeyi;
- Sadridin Ayniy uy - muzeyi;

-“Buyuk Ipak yo'li” freskasi va chet el tillari institutida joylashgan rasmlar ko'rgazmasi zali;

- tinchlik va bag'rikenglik muzeyi;
- AJ “Nafis” chinni idishlari muzeyi.

Turli millat vakillari bo'lgan turistlar quyidagi obidalarni ziyorat qilib ruhan zavqlanadilar:

-tojiklar, armanlar, koreyslar, tatarlar, yaxudiylar va forslar madaniyat markazi;

- Aleksandr Sabirov;
- arman cherkovi;
- yaxudiylar sinagohi;
- koreyslar “Sevgi” cherkovi;
- Melik aka xususiy etnografik muzeyi;

Xalqaro turizm bo'yicha maxsus iqtisodiy ochiq zonalar qatoriga dam olish va hordiq chiqarish industriyasi obyektlari ham qo'shilishi ko'zda tutilmoqda. Xususan, bu quyidagilardan iborat:

- tarixiy kiyimlar teatri;
- “Samarqand” mehmonxonasidagi modalar teatri;
- “Olovli gul” tomoshasi;
- Sherdor madrasasidagi teatrlashgan tomosha;
- Registon maydonidagi chiroq va tovush tomoshasi;
- “Afrosiyob” mehmonxonasidagi hordiq chiqaruvchi shou;
- “Sayyor” mehmonxonasidagi “Hayrli tun” shousi;

-AJ “Xovrenko” nomidagi vinzavod vino saqlanadigan joylarni qurish va vinolar degustatsiyasi;

- milliy folklor guruhlarining konsert dasturlari.

Tabiiyki, turistlar tomonidan xalqaro turizm maxsus iqtisodiy ochiq zonalar bo'yicha ziyorat qilinadigan obidalar ichida Samarqand o'zining tarixiy shaxslari Amir Temur, Ulug'bek, Alisher Navoiy va Abdurahmon

Jomiy yodgorliklari bilan to'ldirib turadi. Bu kabi boy tarixiy va madaniy meros dunyo xalqlarining boyligi hisoblanadi. Shuning uchun, ularni asl ko'inishida saqlab qolish va kelgusi avlodga yetkazish uchun YUNESKO tashkilotining o'rni beqiyos kattaligini hisobga olganda, bu tashkilot bilan strategik hamkorlikni bundan ham rivojlantirishga to'g'ri keladi.

Talabalarga beriladigan mulohaza uchun savollar va topshiriklar

1. Keysda ko'rsatilgan muammoni aniqlang.
2. Turistik resurslar deganda nima ko'zda tutiladi?
3. "Buxoroi Sharif"dagi obidalarni tahlilini bering.
4. "Sharq durdonasi"dagi obidalar haqida aytib bering.
5. O'zbekistonning tarixiy va madaniy merosi turizm rivojlanishiga qanday ta'sir etmoqda?
6. Mamlakatimizdagi tarixiy va madaniy merosimizni saqlab qolish chora-tadbirlari.

TALABALAR UCHUN USLUBIY QO'LLANMALAR
Muammoli holatni mustaqil holda tahlil qilish va yechishga oid
qo'llanma

Bosqichlar	Tavsiya va maslahatlar
2. Berilgan holat bilan tanishish	Berilgan ma'lumotlar asosida asosiy maqsadini aniqlash
3. Asosiy va quyi muammolarni aniqlash	Asosiy muammoni aniqlang. Uning quyi muammolari: 1. Turistik resurslar deganda nima ko'zda tutiladi? 2. "Buxoroi Sharif"dagi obidalarni tahlilini bering. 3. "Sharq durdonasi"dagi obidalar haqida aytib bering. 4. O'zbekistonning tarixiy va madaniy merosi turizm rivojlanishiga qanday ta'sir etmoqda?
4. Muammoli holatning yechimini ta'minlovchi tadbirlarni ishlab chiqish	Mamlakatimizdagi tarixiy va madaniy merosni saqlab qolish chora-tadbirlari.

Muammoli holatni guruhli holatda tahlil qilish va yechishga oid
qo'llanma

Bosqichlar	Taklif va maslahatlar
Muammo va holat to'g'risida tushunchalarni shakllantirish	Guruh a'zolarining holat, muammo va quyi muammolar to'g'risidagi tushunchalarini muhokama etish va ma'qullash

Taklif qilingan variantlarni tahlil qilish va baholash, ustuvor g'oyani tanlash	Muammoni hal qilishning taklif etilgan variantlarini muhokama qilish va baholash. Sizing fikringizcha, ustuvor bo'lgan g'oyani tanlang.
Umumiy talabga javob beruvchi yechimning variantini va uni tadbiq qilish dasturini ishlab chiqish	Muammoning umumiy talabga javob beruvchi yechimning variantini va uni tadbiq qilish dasturini ishlab chiqish: -muammoni hal qilishning tanlangan usullarini aniq va yaqqol ifodalang va asoslab bering; -muammoni tadbiq qilishning ilk qadamlarini ifodalang.
Prezentatsiyani tayyorlash	Guruh nomidan og'zaki prezentatsiya ko'rinishida yechimning natijalarini ifodalang. Guruhli ishning natijalarini kim taqdim etishini muhokama eting va hal qiling: -guruh yetakchisi yoki masala mohiyatiga va bajarilgan funksiyalarga bog'liq holda guruhning har bir a'zosi. Multimedia, slayd yoki plakat ko'rinishida tarqatma materiallarni tayyorlang.

Amaliy mashg'ulotda talabalar faoliyatini baholash ko'rsatkichlari va mezonlari

Muammoli holatning yechimini ta'minlovchi tadbirlarni baholash tizimi

1. Har bir ishtirokchiga 2 balldan qo'yiladi.

2. Har bir yechimning varianti bo'yicha qo'yilgan ballar yig'iladi. Eng yuqori ball to'plagan variant g'olib bo'ladi. Bahsli holatlarda qayta baholanadi.

Guruhda keysni yechish varianlarini baholash jadvali (ballarda)

Ishtirokchilar	Muammoni yechimining alternativ variantlari				
	1	2	3	4	№
A					
B					
V					
№					
Jami					

Individual faoliyatni baholash mezonlari va ko'rsatkichlari (yozma ish) (ballarda)

Mezonlar	Baholash ko'rsatkichlari		
	To'liq (2 ball)	Qisman (1 ball)	Javob yo'q (0)
1. Turistik resurslar deganda nima ko'zda tutiladi?			
2. "Buxoroi Sharif"dagi obidalarni tahlilini bering.			
3. "Sharq durdonasi"dagi obidalar haqida aytib bering.			
4. O'zbekistonning tarixiy va madaniy merosi turizm rivojlanishiga qanday ta'sir etmoqda?			
5. Mamlakatimizdagi tarixiy va madaniy merosimizni saqlab qolish chora-tadbirlari.			
Jami ballar			

KEYSOLOGNING JAVOB VARIANTI

1. Keysda ko'rsatilgan muammoni aniqlang. Keysdagi asosiy muammo bu bizning milliy merosimizning saqlab qolish muammosi.

2. Turistik resurslar deganda nima ko'zda tutiladi? Turistik resurslar deganda, biz avvalo tarixiy va madaniy obidalarimiz deb bilamiz.

3. "Buxoroi Sharif"dagi obidalarni tahlilini bering. Qadimdan musulmon olamida Buxoroni Buxoroi Sharif deb nomlashgan. Shahar 2500 yillik tarixga ega. Masalan, ulkan Ark saroyi eramizgacha IV asrda bunyod etilgan. Yil sayin ko'chalari o'zgarib bordi, binolar o'zgacha ko'rinish oldi. Hozirgi sayohatchi bu ko'p asrlik o'zgarishlarni bizgacha saqlanib kelingan yodgorliklar namunasida ko'rish mumkin. Ulardan 140 dan ortig'i saqlanib qolgan.

Buxoro hukmroni Arslonxon yangi minora qurdirishga qaror qilgan. Bu minorani 1127 yil qurib bitkazishgan va Minorai Kalon deb nomlashgan. "Minorai Kalon" shaharning barcha inshootlarini birlashtiradi. Eng muhimi bu yerda XII asrda qurilgan shahar masjid bo'lgan Masjidi Kalon joylashgan. Shaharning eng ko'zga ko'ringan arxitektura ansambli bu Labi Hovuzdir. Bu yer markazida joylashgan va 1620 yilda qazilgan hovuz bo'lgani uchun Labi Hovuz deb nomlashgan. Ansamblga ajoyib arxitektura yodgorliklari bo'lgan Ko'kaldosh madrasasi, Xonaqa va Nodira Davon Begi madrasalari kiradi. Albatta, Buxoroning oxirgi Amiri qurdirgan Sitorai Mohi Xosa saroyini ham ziyorat qilish kerak.

4. "Sharq durdonasi"dagi obidalar haqida aytib bering.

Samarqandga kelgan mehmonlar, birinchi navbatda Registon maydoni bilan tanishadilar. Temurning nabirasi Mirzo Ulug'bek ilm-fan homiysi maydonning markaziy qismini qurdira boshlagan. Hozirgi kunga kelib, Registon maydonini uchta ajoyib inshootlar, ya'ni Ulug'bek, Sherdor va Tillakori madrasalari bezab turadi.

Afrosiyob shaharchasida joylashgan Samarqand Shoxi Zinda maqbaralar ansambli butun Markaziy Osiyo arxitektura inshootlarining faxri hisoblanadi. Amir Temur buyrug'i bilan Go'ri Amir maqbarasi ham bunyod qilingan. Bu qurilish boshlanishiga 1403 yil Sohibqironning sevimli nabirasi Muhammad Sultonning bevaqt o'limi sabab bo'ldi.

5. YUNESKO tashkiloti tarixiy obidalarni saqlashda qanday yordam bermoqda? Bu kabi boy tarixiy va madaniy meros dunyo xalqlarining boyligi hisoblanadi. Shuning uchun, ularni asl ko'rinishida saqlab qolish va kelgusi avlodga yetkazish uchun YUNESKO tashkilotining o'rni beqiyos kattaligini hisobga olganda, bu tashkilot bilan strategik hamkorlikni bundan ham rivojlantirishga to'g'ri keladi.

6. O'zbekistonning tarixiy va madaniy merjsi turizm rivojlanishiga qanday ta'sir etmoqda? Xalqaro turizm bo'yicha maxsus ochiq iqtisodiy zonalar loyihasi O'zbekistonning quyidagi tarixiy-arxitektura yodgorliklarini o'z ichiga oladi:

-“Registon” ansambli (Sherdor madrasasi va Ulug'bek madrasasi, Tillakori masjid-madrasasi, Shayboniylar daxmasi, Chorsu savdo markazi);

- Amir Temur maydoni va maqbarasi;
- Xoja Ismoil Imom Buxoriy ansambli;
- Shohi Zinda maqbarasi;
- Bibixonim masjidi;
- Ruxobod maqbarasi;
- Afrosiyob shaharchasi;
- Ulug'bek rasadxonasi.

Turistlarning oqimi jadal o'sib borayotgan diniy yo'nalishdagi quyidagi obyektlar hisoblanadi:

- Xoja Ahror yodgorligi;
- Nodira Devonbegi madrasasi;
- Xoja Doniyor maqbarasi;
- Hazrati hizr masjidi;
- Oqsaroy maqbarasi;
- Ishratxona maqbarsi;
- Xoja Abdu Dorun yodgorligi;

Ilmiy-madaniy turizmga quyidagilar sezilarli qo'shimcha hisoblanadi:

- O'zbekiston xalqlari tarixi va madaniyati muzeyi;
- Afrosiyob shaharchasidagi Samarqand tarixi muzeyi;
- Ulug'bek ilmiy-tarixiy muzeyi;
- Viloyat o'lkashunoslik muzeyi;
- Alisher Navoiy muzeyi;
- Sadridin Ayniy uy muzeyi;
- “Buyuk Ipak yo'li” freskasi va chet el tillari institutida joylashgan rasmlar ko'rgazmasi zali;
- tinchlik va bag'rikenglik muzeyi;
- AJ “Nafis” chinni idishlari muzeyi.

Turli millat vakillari bo'lgan turistlar quyidagi obidalarni ziyorat qilib ruhan zavqlanadilar:

- tojiklar, armanlar, koreyslar, tatarlar, yaxudiyalar va forslar madaniyat markazi;
- Aleksev sabori;
- arman cherkovi;
- yaxudiyalar sinagohi;
- koreyslar “Sevgi” cherkovi;
- Melik aka xususiy etnografik muzeyi;

Xalqaro turizm bo'yicha maxsus iqtisodiy ochiq zonalar qatoriga dam olish va hordiq chiqarish industriyasi obyektlari ham qo'shilishi ko'zda tutilmoqda. Xususan, bu quyidagilardan iborat:

- tarixiy kiyimlar teatri;
- “Samarqand” mehmonxonasidagi modalar teatri;
- “Olovli gul” tomoshasi;
- Sherdor madrasasidagi teatrlashgan tomosha;
- Registon maydonidagi chiroq va tovush tomoshasi;
- “Afrosiyob” mehmonxonasidagi hordiq chiqaruvchi shou;
- “Sayyor” mehmonxonasidagi “Hayrli tun” shousi;
- AJ “Xovrenko” nomidagi vinzavod vino saqlanadigan joylarni qurish va vinolar degustatsiyasi;
- milliy folklor guruhlarining konsert dasturlari.

Tabiiyki, turistlar tomonidan xalqaro turizm maxsus iqtisodiy ochiq zonalar bo'yicha ziyorat qilinadigan obidalar ichida Samarqand o'zining tarixiy shaxslari Amir Temur, Ulug'bek, Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy yodgorliklari bilan to'ldirib turadi.

7. Mamlakatimizdagi tarixiy va madaniy merosni saqlab qolish chora-tadbirlari. Bu kabi boy tarixiy va madaniy meros dunyo

xalqlarining boyligi hisoblanadi. Shuning uchun, ularni asl ko'rinishida saqlab qolish va kelgusi avlodga yetkazish uchun YUNESKO tashkilotining o'rni beqiyos kattaligini hisobga olganda, bu tashkilot bilan strategik hamkorlikni bundan ham rivojlantirishga to'g'ri keladi.

Amaliy mashg'ulotlarda muammoli holatlarni (keyslarni) yechish bo'yicha o'qitish texnologiyasi

Mavzu	O'zbekistonda tarixiy obidalarni saqlab qolishda YUNESKO tashkiloti bilan hamkorlik
Talabalar soni: 15-20 nafar	Vahti: 4 soat
O'qitish shakli	Amaliy mashg'ulotda muammoli holatni yechish orqali bilimni chuqurlashtirish.
Amaliy mashg'ulot rejasi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Keysga kirish va uni nazariy jihatdan yoritib berish 2. Muammoning dolzarbligi 3. Muammoning shakllanishi va uni yechish yo'llari 4. Keysni guruhlarda yechish 5. Diskussiya orqali muammoli holatni yechish g'oyalarini ko'rib chiqish 6. Eng muqobil variantini tanlash va natijalarni prezentatsiya qilish 7. Guruhlarning ishlash faoliyati va maqsadga erishilganlik natijalarini baholash va xulosa chiqarish
O'quv mashg'ulotining maqsadi:	Turistik resurslarini o'rganish va aniqlash, ularning saqlab qolishda xalqaro tashkilotlari bilan hamkorlik yo'llarini ishlab chiqish
<p><i>Pedagogning vazifalari:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> - muammoli holatning xususiyatlarini ifodalab beradi; - muammoni aniqlash va uni yechish ketma-ketligini ishlab chiqishni o'rgatadi; - keysda muammoning 	<p><i>O'quv faoliyatning natijalari:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> - O'zbekistondagi obidalarni o'rgangan holda muammoni aniqlash; - muammoli holatning ko'nikmalari va uning asosida kichik muammolarning iqtisodiy asoslangan yechimlarini ishlab chiqish; - korxonaning faoliyatini hisobga olgan

ma'lumotlarini boshqaruv va ishlab chiqarish tizimini yaxshilash uchun hisob-kitoblar o'tkazish hamda yakuniy xulosalar chiqarishni tavsiya qiladi.	holda muammoni yechilishning ketma-ketligini aniqlash.
O'qitish uslubi	Keys-stadi uslubi savol-javob yordamida muammolarni yechish
O'qitish shakli	Amaliy mashg'ulotda frontal va individual ishlash, guruhlarda ishlash
O'qitish vositalari	Keys-stadi, o'quv daftarlari, ilovalar, lazer proektor, kompyuter texnologiyalari, grafik organayzerlar (sxemalar, rasmlar, jadvallar)
O'qitish shartlari	Texnik vositalar bilan ta'minlangan guruhlar bilan ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya
Monitoring va baholash	mustaqil o'rganish uchun keys-stadi beriladi, uy vazifasi uchun mustaqil holatda tahlil qilishni taklif qiladi

Amaliy mashg'ulotning texnologik kartasi

Ishning bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich Tayyorlov qismi (10 minut)	<p>1.1.Mazkur keysning mutaxassislik yo'nalishiga ta'sirini tushuntiradi va tanishtiradi.</p> <p>1.2.Mashg'ulotning nomi, o'tkazish jarayoni, rejalashtirayotgan maqsad va natijalarni e'lon qiladi.</p> <p>1.3.O'rganib chiqish uchun keysga taalluqli qo'llanmalar va tarqatma materiallarni tarqatadi.</p> <p>1.4.Taklif etilgan keys bilan mustaqil holda tanishishni taklif etadi.</p> <p>1.5.Mustaqil ishlash uchun baholash mezonini varaqasini tarqatadi.</p> <p>1.6.Guruhlarda ishlash ko'rsatmasini tushuntirib o'tadi.</p>	Tinglaydilar va yozib oladilar

<p>2-bosqich Asosiy qism (50 minut)</p>	<p>2.1.Nazariy va amaliy tomondan taqqoslangan yangi materialni o‘rganishni tashkil qiladi. Buning uchun qisqa tarzda korxonalarda marketing tadqiqotlarini o‘tkazish borasida qilinadigan ishlar haqida nazariy jihatdan gapirib beradi. Bu esa amaliy mashg‘ulotning rejasiga asoslanib, ekranda jadvallar, chizmalar, rasmlar tariqasida ko‘rsatiladi va sharhlanadi.</p> <p>2.2.Talabalarni guruhlarga bo‘ladi va guruhlarda ishlash jarayonini eslatadi. Keys bilan ishlash uchun individual yoki guruhlarda ishlash jarayoni uchun topshiriqlar beradi. Jamoa ishlab chiqqan holatliy tahlil varaqasini to‘ldiradilar, muqobil g‘oyalarni tanlab oladilar va baholaydilar.</p> <p>2.3.O‘quv faoliyatiga maslahat beradi va yo‘naltiradi. Individual va jamoa ish faoliyatini “Guruhda keysni yechish varianlarini baholash jadvali” tekshiradi va baholaydi.</p> <p>2.4.Prezentatsiyani tashkillashtiradi, muhokama qiladi va o‘zaro baholaydi.</p> <p>2.5.Javoblarni tekshirib, baho beradi va muhokama qiladi. Muammoning tahlili va holatning yechimiga alohida e‘tibor beradi.</p> <p>2.6.Keysning o‘z yechim variantini e‘lon qiladi va namoyish qiladi.</p>	<p>Eshitadilar, konspektlarda qisqa tarzda yozib boradilar. Savollar javob berishadi va daftarlariga yozib boradilar. Savollarni aniqlay-dilar, muhokama qiladilar va tushun-magan joylarini so‘raydilar. O‘quv topshiriqlarni bajaradilar. Guruhlar natijalarning prezentatsiya qiladilar. Diskussiyada qatnashadilar, savollar beradilar va o‘zaro baholaydilar.</p>
<p>3-bosqich. Yakuniy bosqich (20 minut)</p>	<p>3.1.Natijalarga yakuniy xulosalar qiladi, talabalarning e‘tiborini asosiy nuqtalarga qaratadilar, xulosalar qiladilar va baholaydilar.</p> <p>3.2.Mustaqil ta’lim uchun vazifa beradi: Amaliyotni nazariyaga bog‘lagan holda biron-bir korxonani misol qiling va buni seminar darsida muhokama qilinishini aytib o‘tadi.</p>	

XULOSA

Fanni o'qitishning mustaqil ta'lim asosida tashkil etish, avvalo fan mavzularini mustaqil o'zlashtirishda talabalarni tahliliy mushohada, xulosa chiqarishga o'rgatish keys-stadi, topshiriqlar, testlar va loyiha topshiriqlari asosida o'zlashtirishidir. Bunda mustaqil ta'limni tashkil etish uchun quyidagi shartlar bajarilishi zarur:

- talabalarni mustaqil ishga tayyorligi;
- olingan bilimlarni asoslash;
- barcha zarur nazariy o'quv-uslubiy materiallarini mavjudligi hamda ulardan foydalana olish mumkinligi;
- bajarilgan mustaqil ishning sifatini muntazam nazorat tizimi;
- o'qituvchining uslubiy yordami.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, mustaqil ta'limni tashkil etish va samaradorligini oshirishda yuqoridagi shartlarni bosqichma-bosqich bajarish katta ahamiyat kasb etadi.

Hamda talabalarning mustaqil ta'lim olishlarini muvaffaqiyatli tashkil etish uchun fanni o'rganishda uslubiy qo'llanmalar zarur bo'ladi. Mustaqil ishlar, muammoli bahslar uchun mavzular, mustaqil o'rganish uchun adabiyotlar, topshiriqlar, kompyuter test va taqdimotlarni bajarish bo'yicha maslahatlar, o'z-o'zini nazorat qilish uchun savol va testlar keltirilgan nazariy material, amaliy vazifalar, glossariy va h.k.lardan iborat bo'lishi kerak. Mustaqil ishlashda uslubiy qo'llanmalar mavjudligi talabaga o'z vaqtdan oqilona foydalanish, individual tezlik va uslubda o'z faoliyatini to'g'ri tashkil etish imkonini beradi.

Shuning uchun, fanni o'qitishda innovatsiyalar va ilg'or xorijiy tajribalar asosan ta'lim texnologiyalari asosida yoritilgan ta'lim xaritalar asosida tuzilib, o'qitish metodlari, organayzerlar, jadvalli topshiriqlar bilan ishlash ketma-ketligini ta'minlab beradi. Shu bois, fan mavzusi bo'yicha talabalar mustaqil ishini tashkil etishda talabaning akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish mumkin:

-fanning ayrim mavzularini o'quv adabiyotlarini mustaqil o'rganish va konspektlashtirish bilan bir qatorda belgilangan mavzular bo'yicha referat tayyorlash;

-fan bo'yicha yangi xorijiy o'quv adabiyotlar sharhini hamkorlikda tayyorlash;

-belgilangan mavzular bo'yicha zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida taqdimot materiallarini tayyorlash;

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. - T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. Mamlakatimizni yanada obod etish va modernizatsiya qilishni qat'iyat bilan davom ettirish yo'lida. 21-jild. – T.: O'zbekiston, 2013.
3. Commission of the European Communities. “Delivering on the Modernisation Agenda for Universities: Education, Research, and Innovation” Communication from the Commission, COM (2006) 208 final, Brussels: European Union, 2006. [http://ec.europa.eu/euraxess/pdf/com\(2006\)208.pdf](http://ec.europa.eu/euraxess/pdf/com(2006)208.pdf).
4. Clayton W. Barrows, Tom Powers, Dennis Reynolds. Introduction to management in the hospitality industry. Tenth edition. USA, 2012.
5. Fayzullayeva D., Lutfullayeva N. “Iqtisodiy fanlarni o'qitishda zamonaviy ta'lim texnologiyalari” moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. – T., 2016.
6. Yuldashev M.A. Ta'limni boshqarish bo'yicha xorijiy davlatlar tajribasi. // Zamonaviy ta'lim. Ilmiy-amaliy ommabop jurnal. 2015. №12.
7. Turdiyeva M. Oliy ta'lim muassasalari talabalarida pedagogik tafakkurni shakllantirish. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2008.
8. Karimov K. Pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimida masofaviy ta'limning o'ziga xos xususiyatlari. // Ta'lim, fan va innovatsiya. Ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal. №1, 2016.
9. www.gov.uz
10. <http://www.moodle.org>
11. www.ziyonet.uz

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
1. MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISH VA VA MUSTAQIL ISHLARNI BAHOLASH MEZONLARI.....	4
2. MUSTAQIL TA'LIMNI AMALGA OSHIRISH YUZASIDAN KO'RSATMALAR.....	8
3. TALABALARGA MUSTAQIL ISH UCHUN BERILADIGAN NAZORAT VA TEST TOPSHIRIQLARI.....	12
4. MASHG'ULOTGA TAYYORGARLIK KO'RISH UCHUN TALABALARGA BERILADIGAN MUSTAQIL ISH TOPSHIRIQLARI.....	18
5. KEYS-STADI TOPSHIRIQLARI.....	22
XULOSA.....	35
FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	36

